

PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA FORS  
TILIDAN O’ZLASHGAN QATLAM SO’ZLAR TALQINI

Nazarov Zokir Muxammadat o‘g‘li

Termiz davlat universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o‘qituvchisi

Telefon: +998937616566

Email: [znazarov@tersu.uz](mailto:znazarov@tersu.uz)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8020280>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hozirgi zamон о‘zbek tilshunosligidagi kam o‘rganilgan muammolardan biri – Pirimkul Qodirov “Yulduzli tunlar” romanida fors tilidan o’zlashgan qatlam so’zlar talqini, so’zlarning qo’llanilishi, uning ma’nosi, tarkibi kabi jihatlarini yoritishni maqsad qildik.

**Kalit so’zlar:** Tilshunoslik, leksika, leksik qatlam, o’zlashgan qatlam element, leksik elementlar, leksik fond.

THE INTERPRETATION OF LAYERED WORDS BORROWED FROM THE  
PERSIAN LANGUAGE IN PIRIMKUL KADYROV'S NOVEL "STARRY NIGHTS"

**Abstract.** In this article, one of the understudied problems of contemporary Uzbek linguistics is to shed light on aspects such as the interpretation of words, the use of words, their meaning, composition, and the layer of words borrowed from Persian in the novel "Starry Nights" by Pirimkul Kadirov. we did

**Key words:** Linguistics, lexicon, lexical layer, acquired layer element, lexical elements, lexical fund.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ МНОГОСЛОЙНЫХ СЛОВ, ЗАИМСТВОВАННЫХ ИЗ  
ПЕРСИДСКОГО ЯЗЫКА, В РОМАНЕ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА «ЗВЕЗДНЫЕ  
НОЧИ»

**Аннотация.** В данной статье одной из малоизученных проблем современного узбекского языкоznания является освещение таких аспектов, как толкование слов, употребление слов, их значение, состав, а также словесный пласт, заимствованный из персидского языка в романе «Звездные ночи». » Пиримкул Кадыров. мы сделали

**Ключевые слова:** Языкоznание, лексика, лексический пласт, элемент приобретенного слоя, лексические элементы, лексический фонд.

Komillikka intilgan inson borki, avlod-ajdodi kimligi, nasl-nasabini o‘z tug‘ilib voyaga yetgan qishloq shahar, Vataninig tarixini undagi joylarining nomlanish tarixini bilishga qiziqadi. Bu o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilishning bir ko‘rinishidir. Shunga ko‘ra tilshunosligimiz oldida turgan tarixiy-badiiy romanlar tili, uslubi yozuvchi mahoratini o‘rganish uning turli nozik qirralarini ochish tilshunoslikning oldida turgan dolzarb muammolardan hisoblanadi.

O‘zbek tili o‘tmishda bir qator qardosh bo‘lmagan boshqa tizimdagи tillar bilan ham aloqda bo‘lgan. Bunday tillar fors-tojik va arab tillaridir. Bu so‘zla

**Reza** (forscha: ushoq, parcha; yog‘och qirindisi) – 1) uncha katta bo‘lmagan; mayda kichik; 2) mayda narsa (suv yoki ter tomchilari haqida). Asarda shu ma’noda kelgan: Uning mayin sarg‘ish tukli peshonasida, yuqori labining ustida ter rezalari yiltirardi.

**Avbosh** (forscha) – bezori, badkirdor, sayoq. Asarda ko‘chma ma’noda ovsar, anqov ma’nosida kelgan. – Sen nega ot ni mahkam tutmading, avbosh! – deb Nuyon navkarni so‘kdi.

**Kungura** (forscha: devor yoki to‘siqning dandanası) – qal'a devorlari yoki imorat aylanasiga tishga o‘xshatib ishlangan memoriy be‘zak; dandana. Qo‘rg‘on ichidan darvozaxonaning tomiga chiqib olgan yapasqi bir navkar devor kungurasi orasidan ularni kuzatib turgan edi.

**Kadi** (forscha) – 1) qovoq; 2) qovoqning po‘stloq qismidan taylorlangan idish: U kumush bilan bezatilgan qimiz kadidan jiyda gulli piyolaga qimiz quyib, sipqordi.

**Zarurast-marurarst** (forscha) – zarurat – uzrli: – Bugun sizga ravo, – dedi Yoqubbek. – Zarurast – ma’rurast.

**Kushoyish** (forscha: ochish, ochilish, hal qilish) – birin qiyin ishning oson hal bo‘lishi, yengil bitishi; Agar kushoyishi koringizni berib, taxt Jahongir mirzoga o‘tsa, siz uning eng ishongan rahnamosi bo‘lursiz.

**Kimxob** (forscha) – tanda ipi zar, arqog‘i ipakdan gul (naqsh) hosil qilib to‘qilgan qimmatbaho mato. Zar ipining rangiga qarab sariq kimxob, kumush rang (oq) kimhob deb nomlangan; ipakning rangiga qarab ko‘k kimhob, pushti kimhob, qizil kimhob farqlangan. Boy xonadonlardagi ayol va erkaklarning ustki kiyimlari (to‘n, nimcha, kamzul, paranji va boshqalar), asosan, kimhobdan tikilgan. kimhob to‘qish Buxoro, Shahrisabz, G‘ijduvon shaharlarida qadimdan rivojlangan. 20-asr 20-yillarigacha Turkiston o‘lkasining chet ellarga chiqaradigan asosiy matolaridan hisoblangan: Ilgari taxt qo‘yilgan shahnishinga turkman gilamlari va kimhob ko‘rpachalar solinib, maxsus joy hozirlandi.

**Mardak** (forscha; kichkina odam, pakana; ahmoq) – 1) jo‘xori so‘tasi. 2) yengiltabiat, pastkash kishi (asarda shu ma’noda kelgan) – Amirzodam, agar bu mardak sadoqatli qulingiz bo‘lganda yomon ovoza tarqatgan o‘sha navkarni qo‘lidan tutib dorug‘aga topshirmasmidtı?

**Sepoya** (forscha: uch poyali uch, oyoqli) – 1) to‘g‘on damba qurishda, daryo va anhorlarning qirg‘oqlarini suv yuvib ketishdan saqlashda ishlatiladigan, uchta xodani uchburchak shaklda bir-biriga ahkamlab, poyalar orasi xarsangtosh va boshqa materiallar bilan to‘zg‘aziladigan moslama (asarda shu ma’noda kelgan); 2) biror narsa olish, ilish uchun mo‘ljallangan oyoqli asbob; 3) novdadan uchburchak shaklida to‘qilgan chanbarak: Ko‘prik xiyla uzun bo‘lganligi uchun uch-to‘rt joyida tagidan qo‘yilgan zo‘r sepoya tirkaklari bor edi<sup>1</sup>.

**Obdasta** (forscha: qo‘l yuviladigan suv) – ro‘zg‘or buyumi; yuz qo‘l yuvish uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jo‘mrakli, qorni keng, bo‘g‘zi tor idish. Asarda idish ma’nosida kelgan: Qashqarcha kumush obdasta ko‘tarib kelayotgan semiz oftabashi har o‘n qadamda bir to‘xtalib qolardi.

**Savdarboshi** (forscha) xos xizmatkor boshlig‘i: Savdarboshi ayvonning sangfarsh qilingan zinalariga gul dor poyandoz to‘shagan edi, mulla Fazliddin iltimos qilib, uni oldirib tashladi.

**Sangfarsh** (forscha+forscha: tosh+gilam, polos, bo‘yra) – hovli, yo‘lka va shu kabilarga toshlardan gul yasash yoki tosh, g‘isht yotqizmoq.

**Javzo** (arabcha: katta) – o‘n ikki burjning biri, Sarston va Savr burjlari o‘rtasida joylashgan. Shamsiya yil hisobida uchinchi oyning arabcha nomi (22-may-21-iyun) kunlariga

<sup>1</sup> P. Qodirov Yuluzli tunlar / roman / “Adabiy barhayot asarlar” turkumi – T.: “Navruz”, 2019. – 73-b.

to‘g‘ri keladi. Asarda masjidning nomi: Oq otliq Bobur mirzo yuzdan ortiq beklari va xos navkarlari bilan Javzo masjididan o‘tib, tog‘ etagiga yaqinlashib qolgan edi

**Borgoh** (forscha: podshoh saroyi, qabulxonasi; podshoh chodiri) – maxsus ijozat bilan kiriladigan joy, podshoh va xonalarning qabulxonasi: Ular hammasi jannatariq bo‘yiga o‘rnatilgan borgoh va xirgoh oldida to‘xtadilar.

**Xirgoh** (forscha) – 1) podshohning taxti qo‘yiladigan va qabul marosimlari o‘tkaziladigan chodir; 2) O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarida elchilarni qabul qiladigan maxsus joy.

**Chavgon** (forscha: uchi egri tayoq) – uchi egri qilib taylorlangan maxsus tayoq; shu tayoq va to‘p bilan ot ustida o‘ynaladigan jamoaviy sport o‘yini. Hozirgi vaqtida qisman golf va xookkey o‘yinlariga o‘xshaydi: Aslzoda qizlar orasida eng ko‘hligi bo‘lgan Xonzoda begin bir marta erkakcha kiyinib ot minib, inisining o‘smir mulozimlari bilan chavgon o‘ynagan.

**Parmor paprar** (forscha: sirkul; doira, to‘garak) – 1) sirkul; 2) atrofida aylanuvchi, aylana hosil qiluvchi (ko‘chma ma’noda): Mulla fazliddinning qo‘lidagi parmor hayajonidan yerga tushib ketdi.

**Sangkorlik** (forscha) – marmar toshlarga ishlov beruvchilik kasbi, mashg‘uloti: Marmar yo‘nib sangkorlik qilishga sangtarosh yo‘q.

**Sangtarosh** (forscha) – tosh yo‘nuvchi, haykaltarosh usta.

**Toqi** (arabcha: gumbaz, quba, arka) – oq tol g‘o‘lalaridan bir tomoni yassi, ikkinchi tomoni do‘ng qilib taylorlanadigan, imoratning to‘sirlari ustida zikh qilib ko‘ndalang teriladigan katta tayoqcha yoki hassa; 2) bekor yotmoq (ko‘chma ma’noda); 3) qorovullarning shaqildog‘i; 4) ko‘ylakning yelka qismiga ichidan qo‘ilgan astar (asarda shu ma’noda kelgan): Beginning marvarid qadalgan ipak toqisidan tortib uchi qayrilgan qizil etikchasiga butun borlig‘i shunday nafis ko‘rinar, bu samoviy go‘zallik oldida tosh va g‘ishtdan gap ochish juda erish tuyulardi<sup>2</sup>.

**Niliy** (forscha) – to‘q ko‘k, zangori: Niliy gumbazli jajji bino ko‘klam quyoshida shunday nafis jilolanib ko‘rindiki, Boburning dili birdan ravshan tortib ketdi.

**Islimi(y)** (forscha: ilang-bilang o‘simlikka o‘xshash naqsh) – ganch, yog‘och oltin. Kumushga o‘yib, chizib yoki bo‘rttirib ishlanadigan, zardo‘zi kiyim va buyumlar zar bilan tikiladigan, bir-biriga uzlusiz ulanib, o‘ralib ketadigan palksimon, chirmovuqsimon naqshlarning takrorlanishidan iborat qadimgi naqsh turi: – Islimi gulhan shumi? – deb so‘radi.

**Gilvata** (forscha: o‘ta chidamli loy) – yumshoq kulrang, tog‘ jinsi. Xalq tabobatida tamoq og‘rig‘i, og‘iz yelkishi kabi kasalliklarga qarshi dori sifatida ham ishlatilgan: – Hazrati oliyga azim shulki, Samarqandda Ulug‘bek madrasasining devorlar uchun qanday ganch-u gilmoya, g‘isht-u koshin ishlatilgan bo‘lsa, bu hujraning devorlariga ham faqir shularni ishlatmishmen<sup>3</sup>.

**Azimat** (arabcha) intilish, iroda, qat’iyat, qat’iy qaror; jazm, qasd: – Bultur Samarqand azimati bilan ketib bizni ko‘p sog‘intirgan edingiz-ku?

**Toji sar** (forscha) – boj toji: – Xonim hazratlarining iltimoslari menga tojisar bo‘lsin, – dedi Qosimbek cho‘kkalab o‘tirgan ko‘yicha bosh egib.

**Gustox** (forscha: beadab; dadil qo‘rqmas) – odobsiz, beadab, beandisha; surbet, betakalluf. **Gustoxlik** – odobsizlik, beadablik, andishasizlik; surbetlik: – Jonim bilan! Ammo beklarning ba‘zi andeshalaridan faqir xabardormen. Gustohlik sanalmasa aytay.

<sup>2</sup> P. Qodirov Yuluzli tunlar / roman / “Adabiy barhayot asarlar” turkumi – T.: “Navruz”, 2019. – 90-b.

<sup>3</sup> P. Qodirov Yuluzli tunlar / roman / “Adabiy barhayot asarlar” turkumi – T.: “Navruz”, 2019. – 95-b.

**Kayvon(i)** (forscha) – zuhal (Saturn) sayyorasining forscha nomi; 1) baland ayvon; 3) yoshi ulug‘, ko‘pni ko‘rgan, ko‘p narsani biladigan; uddaburon: Sulton Ahmad mirzoning o‘g‘li yo‘q edi, Boburga podshoh oilasi havas bilan qarar edi. Shuning uchun kayvonilar “yangi tushgan kelin ham mana shu sherdik o‘g‘il ko‘rsinlar” deyishib, bet ochishga Boburni munosib topdilar<sup>4</sup>.

**Nopormon, (naforman)** (forscha) – och binafsha, qizg‘ish binafsha rangli: O‘shning janubidagi keng teksliklar, to‘lqinsimon qir va adirlar turli tuman dala gular bilan bezangan. Sap-sariq qoqlilar, ko‘k qizg‘ish no‘xataklar, nopormon er-baholar orasida uzoqdan qip-qizil gilamga o‘xshab ko‘zga tashlanadigan – qiyg‘os ochilgan lolaqizg‘oldoqlar edi.

**Haftkor** (forscha) – yetti xil rang: Xonzoda beginning nafis qaddi-qomati, haftkor ipak matodan kiygan kamalakday tovlanuvchi kabosi Ahmad Tambalga bugun har qachongidan ham jozibali ko‘rinardi.

**Sarboz** (forcha: bosh o‘ynatuvchi; boshni, jonni fido qiluvchi) – amir, xon qo‘shinning oddiy piyoda askari; askar.

**Siporish** (forscha) – topshiriq, vazifa, buyurtma; farmoyish, amir; tavsiya kafolat; o‘git, nasihat. Asarda nasihat manusida kelgan: Xonim tasdiq ma’nosida bosh irg‘agach, ali Do‘szbek tamoq qirib, siporish bilan so‘z boshladi:

– Amirzodam, validangiz ikkovimiz nozik bir muammoda sizning maslahatingizni olgani keldik.

**Sahhof** (arabcha) – 1) gazeta, kitob sotuvchi; 2) kitoblarni muqovalovchi usta; muqovasoz: – Gap tamom, – dedi. So‘ng Javhariya yuzlandi. – Qani endi sahhoblar rastasiga o‘taylik.

**Kishvar** (forscha) – mamlakat, o‘lka; viloyat: Tangrim bizga shunday katta kishvarni inoyat qilgani uchun, biz Samarqandday olamshumul dorussaltanaga tuyassar bo‘lganimiz uchun shukronalar aytmog‘imiz kerak.

**Dorussaltana** (arabcha) – sulton poytaxti, oliy hukumdar qarorgohi.

**Domod** (forscha) – kuyov: Domat raiyatga o‘zlarini yaxshi ko‘rsatmoqlari zarur.

**Mardona** (forscha) – 1) botrlarcha; mardlarcha; 2) erkaklarga tegishli bo‘lgan kiyimni ayollar kiyish holati. Asarda shu ma’noda kelgan: – Mash’alani yaqinroq tut! Ie, Xonzoda begimlar? Nechun mardona kiyim kiyibsiz?

**Tangi** (forscha: torlik, siqqlik, kambarlik) – ikki tog‘ning ostki tutashgan yeri; tor dara. Hozirgi G‘allaorol yaqinidagi qadimi qishloq.

**Miroxur** (arabcha+forscha: bosh otboqar; otxona boshlig‘i) – O‘rta Osiyo xonliklarida saroy otxonalariga boshchilik qilgan mansabdor: Temur darvozasi deb atalgan ulug‘vor tangidan o‘tganlaridan keyin Bobur mahofani ishigini ochib, miroxurni chaqirtirdi.

**Shohnishin** (forscha: faxriy joy, o‘rin; bolaxona) – podsho, xon kabi oliy hukmdor o‘tiradigan, uning taxti qo‘yilgan xona: – shahnishinning orqasidan topilgan maxfiy sandiqchi?

**Jo‘s-h-u xurush** (forscha) – biror ish yoki jarayonning yuzaga kelishi, tezlashuvi uchun yordam beradigan vosita: ayniqsa marg‘ilonliklar hozir xush-u xurushga kelgan.

## REFERENCES

1. Maxmaraimova Sh.T. Hozirgi o‘zbek tili. (leksikalogiya). O‘quv qo‘llanma / – T.: “Firdavs-shoh nashriyoti”, 2021. –380 b.

<sup>4</sup> P. Qodirov Yuluzli tunlar / roman / “Adabiy barhayot asarlar” turkumi – T.: “Navruz”, 2019. – 105-b.

2. P. Qodirov Yuluzli tunlar / roman / “Adabiy barhayot asarlar” turkumi – T.: “Navruz”, 2019. – 576-b.
3. Nazarov Z. PIRIMQUL QODIROVNING “YULDUZLI TUNLAR” ROMANIDA O ‘ZLASHGAN QATLAM SO ‘ZLARNING QO ‘LLANILISHI //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 13. – C. 840-844.